

# PAVLUSNING KOLOSALIKLARGA MAKTUBI

## Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini qamoqda bo'lgan paytda\* Kolosa shahridagi imonlilar jamoatiga yozgan. Bu shahar hozirgi Turkiya hududida, Efes shahrining sharqida joylashgan edi. Kolosadagi imonlilar jamoatiga Pavlus emas, balki Epafiras ismli masihiy yetakchi asos solgan edi. Maktubda Pavlus Epafirasning ismini bir necha marta tilga olgan. Maktub yozilgan paytda Epafiras Pavlus bilan birga edi.

Ushbu maktubda asosiy urg'u Iso Masihga berilgan. Pavlus Masihning shaxsiyati va U bergan najotning to'liqligi haqida so'z yuritadi, insoniy falsafaning puchligini ko'rsatadi. Muallif Masihni ulug'laydi, Uni turli tarzda: ko'rinmas Xudoning surati, dunyo yaratilmasdan oldin mavjud bo'lgan va butun borliqni asrab turgan Zot, jamoatning Boshi, ilohiy komillik namoyandasi, butun borliqni Xudo bilan yarashtirgan Najotkor, deb ta'riflaydi. Pavlus Kolosalik imonlilarni Masihga umid bog'lashga, Xudo bilan birlikda, Unga bo'ysungan holda yashashga chaqiradi.

Pavlusning maqsadi Kolosa jamoatidagi yolg'on ta'limotni fosh etish edi. U Kolosadagi imonlilarni ogohlantirib, diniy rasm-rusumlardan ehtiyot bo'linglar, najot topish uchun o'zingizni qiynoq-azoblarga solmanglar, quruq safsatalardan qochinglar, farishtalarga sajda qilmanglar, deb nasihat qiladi. Najot topish uchun Masihga ishonishning o'zi kifoya ekanligini o'rgatadi.

Maktub so'ngida muallif masihiylarga nasihatlar va ko'rsatmalar beradi. Xudoning sevgisi ularning kundalik hayotida, chunonchi, er-xotin munosabatlarida, ota-ona va farzandlar, xo'jayin va qul munosabatlarida aks etishi kerakligini ta'kidlaydi.

## 1-BOB

### Salom

<sup>1</sup>Xudoning irodasi bilan Iso Masihning havoriysi bo'lgan men — Pavlus hamda birodarim Timo'tiydan\* <sup>2</sup>Kolosa shahridagi Xudoning azizlari, Masihga tegishli bo'lgan sodiq birodarlarimizga salom! <sup>3</sup>Otamiz Xudo\* sizlarga inoyat va tinchlik ato qilsin!

### Shukrona ibodati

Sizlar uchun ibodat qilganimizda biz har doim Xudoga, Rabbimiz Iso Masihning Otasiga shukur aytamiz. <sup>4</sup>Chunki Iso Masihga bo'lgan imoningiz va Xudoning barcha azizlariga ko'rsatayotgan sevgingiz haqida biz eshitdik. <sup>5-6</sup>Xudo sizlar uchun jannatda shodlik tayyorlab qo'yaniga umid bog'ladingiz. Xushxabar, ya'ni haqiqat so'zi sizlarga yetib kelganda mana shu umid haqida eshitdingiz. Imoningiz va sevgingiz bu umidingizga asoslangan. Xushxabar butun dunyo bo'ylab samara keltirib, yoyilmoqda. Xushxabarni eshitib, Xudo inoyatining haqiqiy ma'nosini tushunib yetgan kuningizdan beri sizlarning orangizda ham Xushxabar samara bermoqda. <sup>7</sup>Sizlar bu Xushxabarni

bizning aziz hamkorimiz Epafrasdan\* eshitdingiz. U sizlar uchun sadoqat bilan Masihga xizmat qilyapti. <sup>8</sup> Muqaddas Ruh sizlarga ato qilgan mehr–muhabbat haqida u bizga aytib berdi.

<sup>9</sup> Shu sababdan sizlar haqingizda eshitgan kunimizdan beri sizlar uchun ibodat qilishni kanda qilmayapmiz. Xudoning Ruhi beradigan donolik va aql–idrok orqali Uning irodasini to‘liq anglab yeting, deb ibodat qilyapmiz. <sup>10</sup> Shunda sizlar Rabbimiz Isoga munosib hayot kechirib, har jihatdan Uni xursand qilaszlar. Qilgan har bir yaxshiligingiz samara keltiradi va sizlar Xudoni yanada chuqurroq tushunib bilaszlar. <sup>11-12</sup> Xudo O‘zining buyuk qudrati bilan sizlarni kuch–quvvatga to‘ldirib, har qanday vaziyatda sizlarga sabr–toqat va bardosh bersin. Xudo O‘zining aziz xalqiga va‘da qilgan nurdan\* bahramand bo‘lishni sizlarga loyiq ko‘rgani uchun quvonch bilan osmondagi Otamizga shukrona ayting. <sup>13</sup> U bizni zulmat hukmronligidan qutqarib, sevikli O‘g‘lining Shohligiga qabul qildi. <sup>14</sup> O‘z O‘g‘li orqali\* bizni kechirib, gunohlarimizdan ozod qildi.

<sup>15</sup> Ko‘rinmas Xudoning surati Masihdir,  
U butun borliqning to‘ng‘ichidir\*.

<sup>16</sup> Xudo butun borliqni Masih orqali yaratgan.  
Yeru ko‘kdagi bor mavjudot,  
Ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan har bir narsa,  
G‘ayritabiiy kuchlar, taxtu saltanatlar,  
Bularning hammasi Masih orqali,  
Uning O‘zi uchun yaratilgandir.

<sup>17</sup> Masih butun borliqdan oldin mavjud edi,  
Butun borliq U tufayli mustahkam turibdi.

<sup>18</sup> Masih jamoatning boshidir,  
Jamoat Masihning tanasidir.  
Hamma narsaning ibtidosi Masihdir,  
U hammadan ustun bo‘lishi uchun  
Birinchi bo‘lib o‘likdan tiriltirilgan.

<sup>19</sup> Xudo O‘z komilligini  
Isoda jo qilishni ma‘qul ko‘rdi.

<sup>20</sup> Yeru ko‘kdagi borliq mavjudotni  
Masih orqali Xudo O‘zi bilan yarashtirib,  
Masihning xochda to‘kilgan qoni orqali  
Ular bilan tinchlik o‘rnatdi.

<sup>21</sup> Sizlar ham bir vaqtlar Xudoga dushman edingizlar. Fikru zikringiz Xudodan uzoq bo‘lib, yomon ishlar qilardingizlar. <sup>22</sup> Masihning jismoniy tanadagi o‘limi orqali Xudo sizlarni O‘zi bilan yarashtirdi. Endi sizlar Xudoning oldida muqaddas, benuqson va aybsiz turaszlar. <sup>23</sup> Shunday ekan, hech ikkilanmay, imoningizda mahkam turishingiz kerak. Sizlar Xushxabarni eshitib, umidga ega bo‘ldingiz. O‘sha umidingizni yo‘qotmang. Bu Xushxabar yer yuzidagi butun jonzotga e‘lon qilindi. Men — Pavlus o‘sha Xushxabarning xizmatchisiman.

### **Pavlus — jamoat xizmatkori**

<sup>24</sup> Men sizlar uchun azob chekayotganimdan xursandman. Axir, men Masih tanasi,

ya'ni jamoat uchun azob chekyapman. Shunday qilib, mening azoblarim Masih chekkan azoblarga qo'shiladi. <sup>25</sup> Xudoning xabarini sizlarga to'liq e'lon qilishim uchun U meni jamoatning xizmatchisi qilib tayinladi. <sup>26</sup> Bu Xushxabar asrlaru nasllar davomida sir tutilgan edi, endi esa u Xudoning azizlariga oshkor qilindi. <sup>27</sup> Xudo barcha xalqlar ham Masih orqali boy ulug'vorlikka yetishishlarini hammamizga ko'rsatishni istadi. Bu sirning mohiyati shudir: Masih, ya'ni ulug'vorlikka yetishish umidi sizlarning orangizdadir. <sup>28</sup> Har biringiz Masih tanasining yetuk a'zosi sifatida Xudoning oldida turishingizni istaymiz. Shuning uchun biz hammani ogohlantirib, donolik bilan ta'lim berib, Masih haqida o'rgatyapmiz. <sup>29</sup> Men ham ana shu maqsadda jon-jahdim bilan xizmat qilardim ekanman, menga kuchli ta'sir qilayotgan Masihning qudratiga suyanaman.

## 2-BOB

<sup>1</sup> Men sizlar uchun, shuningdek, Laodikiya shahridagilar\* hamda meni shaxsan ko'rmagan imonlilarning hammasi uchun naqadar zo'r g'ayrat bilan mehnat qilayotganimni bilishingizni istayman. <sup>2</sup> Maqsadim shuki, sizlar dadil bo'ling, muhabbat rishtalari sizlarni birlashtirsin, Xudoning siri — Masih\* haqida chuqur va boy tushunchaga ega bo'ling. <sup>3</sup> Chunki donolik va ilmu ma'rifatning hamma xazinalari Masihda pinhondir. <sup>4</sup> Hech kim sizlarni tilyog'lamalik bilan yo'ldan ozdirmasin deb, men sizlarga shularni aytyapman. <sup>5</sup> Garchi men jisman sizlarning orangizda bo'lmasam ham, xayolan siz bilan birgaman. Sizlarning tartib-intizomingiz va Masihga bo'lgan sog'lom imoningizni ko'rib sevinyapman.

### Masih ato qiladigan yangi hayot

<sup>6</sup> Sizlar Iso Masihni Rabbimiz deb qabul qilgan ekansizlar, doimo U ko'rsatgan yo'ldan yuravering. <sup>7</sup> Olgan ta'limotingizga muvofiq, Masihda tomir yoyib, qaror toping. Imoningizda qattiq turing, Xudoga shukronalar tilingizdan tushmasin. <sup>8</sup> Ehtiyot bo'linglar, hech kim falsafa va quruq safsatalar bilan sizlarni avramasin. Bunday gaplar Masihga emas, balki insonlarning an'anasiga, dunyoning xurofiy kuchlariga\* asoslanadi. <sup>9</sup> Xudo O'zining butun borlig'i bilan to'la-to'kis Masihning vujudida mavjuddir. <sup>10</sup> Masihga tegishli bo'lganingiz uchun hayotingiz to'la-to'kis, chunki U har qanday kuch va hokimiyatdan ustundir. <sup>11</sup> Masih orqali sizlar sunnat qilindingiz, bu jismoniy sunnat\* emas, balki Masih orqali qilinadigan sunnat, ya'ni gunohkor tabiatning kesib tashlanishidir. <sup>12</sup> Suvga cho'mdirilish orqali Masih bilan birga ko'mildingiz. Masihni o'likdan tiriltirgan Xudoning qudratiga bo'lgan imoningiz tufayli Masih bilan birga tirildingiz. <sup>13</sup> Ilgari sizlar sunnatsiz\*, gunohga botgan bo'lib, ruhan o'lik edingizlar. Endi esa Xudo barcha gunohlaringizni kechirib, sizlarni Masih bilan birga tiriltirdi. <sup>14</sup> Bizga qarshi yozilgan ayblovlarning hukmini Xudo bekor qildi, ya'ni o'sha hukmni xochga mixlab, kuchdan qoldirdi. <sup>15</sup> O'sha xoch orqali koinotdagi kuchlaru hukmronliklar ustidan g'alaba qozonib, ularni qurolsizlantirdi. O'zining g'olibona yurishida\* ularning tutqun ekanligini namoyish etib, sharmanda qildi.

<sup>16</sup> Shuning uchun yegulik-ichgulik, diniy bayramlar, yangi oy shodiyonalari yoki Shabbat kuni xususida hech kim sizlarga qonun-qoida chiqarmasin. <sup>17</sup> O'sha urf-odatlar kelajakning sharpasigina, xolos, ammo haqiqiy hayot Masihdadir. <sup>18</sup> Shunday ekan, dindorlikka berilib, o'zini mo'minlikka soladiganlar, farishtalarga sig'inadiganlar sizlarni kamsitsa, e'tibor bermanglar. Ular ko'rgan vahiyolari bilan maqtanadigan, aql-zakovati

bilan mag'rurlanadigan odamlardir. <sup>19</sup> Bunday kishilar Masihdan ajralgan. Masih — O'z tanasi, ya'ni jamoatning Boshidir. Mana shu Boshdan butun badan hayotbaxsh kuch olib, payu bo'g'inlar orqali o'zaro ulanib, Xudoning xohishi bo'yicha o'sadi.

<sup>20</sup> Agar sizlar Masih bilan birga o'lgan bo'lsangizlar, dunyoning xurofiy kuchlari uchun ham o'lgan bo'lasizlar. Unday bo'lsa yana nimaga bu dunyoga qul bo'lib, <sup>21</sup> "tegma", "yema", "ushlama" degan qonun-qoidalarga bo'ysunasizlar?! <sup>22</sup> Bu insoniy ta'limotlar va qoidalar ishlatilgan sari yo'q bo'lib ketadigan narsalar haqida—ku! <sup>23</sup> Garchi bu qoidalar keltirib chiqargan dindorlik, o'zini mo'min qilib ko'rsatish, badanni qiynash odamlarga hikmatday tuyulsa—da, aslida ular shahvatu nafsga bo'lgan ishtiyoqni ko'paytiradi.

### 3-BOB

<sup>1</sup> Sizlar Masih bilan birga tirilgan ekansiz, samoviy narsalarning payida bo'ling, axir, Masih ham samoda Xudoning o'ng tomonida o'tiribdi\*. <sup>2</sup> Fikringiz yer yuzidagi emas, samodagi narsalar bilan band bo'lsin. <sup>3</sup> Axir, sizlar o'lgansizlar, asl hayotingiz esa Masih bilan Xudoning huzurida pinhondir. <sup>4</sup> Bizning hayotimiz Iso Masihdir. Masih zohir bo'lganda, sizlar ham U bilan birga ulug'vorlikda zohir bo'lasizlar.

<sup>5</sup> Shunday ekan, dunyoviy tabiatningizni, ya'ni fahsh—zino, nopoklik, shahvat, yovuz xohishlar va butparastlikka teng bo'lgan ochko'zlikni yo'q qilinglar. <sup>6</sup> Mana shular sababli Xudoning g'azabi itoatsiz bandalarning boshiga tushadi! <sup>7</sup> Sizlar ham bir vaqtlar shunday odamlarning yo'lidan yurib, o'zingizni o'shalar kabi tutardingizlar. <sup>8</sup> Endi esa jahl, g'azab, yovuzliklarning hammasini bir chetga yig'ishtirib qo'yinglar. Og'zingizdan hech qanday jerkish yoki nojo'ya so'z chiqmasin. <sup>9</sup> Bir—biringizga yolg'on gapirmanglar. Chunki sizlar eski tabiatningizni, uning yomon odatlari bilan birga o'zingizdan soqit qildingizlar. <sup>10</sup> Buning o'rniga siz yangi tabiatga burkandingiz. Sizlar Xudoni yaqinroq bilib borarkansiz, sizning yangi tabiatningiz uni yaratgan Xudoning suratiga o'xshab bormoqda\*. <sup>11</sup> Shu nuqtayi nazardan endi na yunon\* bor, na yahudiy, na sunnatli bor, na sunnatsiz, na johil\* bor, na madaniyatsiz\*, na qul bor, na ozod. Eng ahamiyatlisi Masihdir, U hamma bilandir, hamma narsa Uning qo'li ostidadir.

<sup>12</sup> Sizlar Xudoning tanlangan, aziz va suyuqli xalqisizlar. Shunga ko'ra, rahm—shafqat, mehribonlik, kamtarlik, muloyimlik va sabr—toqatni zeb—ziynat qilib taqib olinglar.

<sup>13</sup> Bir—biringizga nisbatan sabr—toqatli bo'linglar. Orangizda xafagarchilik o'tgan bo'lsa, bir—biringizni kechiringlar. Egamiz\* sizlarni kechirgani kabi, sizlar ham boshqalarni kechiringlar. <sup>14</sup> Va nihoyat muhabbatga burkaninglar, chunki mehr—muhabbat mukammal ahillikka yetishtiradi. <sup>15</sup> Masih ato qiladigan tinchlik yuraklaringizda hukmron bo'lsin, axir, sizlar bir tananing a'zosisizlar\*, tinchlikka da'vat qilingansizlar. Minnatdor bo'linglar. <sup>16</sup> Masihning kalomi sizda chuqur o'rnashib, yashnayversin. Donolik bilan bir—biringizga ta'lim bering, nasihat qiling. Zaburlarni xonish qilib, madhiyalar va ruhiy qo'shiqlar bilan, chin ko'ngildan minnatdorchilik bildirib, Xudoni tarannum etinglar. <sup>17</sup> Nimaiki qilsangiz ham, gapirsangiz ham, hammasini Rabbimiz Iso nomidan qilib, U orqali Otamiz Xudoga shukrona aytinglar.

#### Masihiy oilalar uchun qoidalar

<sup>18</sup> Ey xotinlar, eringizga itoatli bo'linglar. Shunday qilish Rabbimiz Isoning izdoshlariga munosibdir.

<sup>19</sup> Ey erlar, xotiningizni sevinglar, ularga qo‘pol muomalada bo‘lmanglar.

<sup>20</sup> Ey farzandlar, doim ota–onangizga quloq solinglar, chunki bu Rabbimizga ma‘qul keladi.

<sup>21</sup> Ey otalar, farzandlaringizni ranjitavermanglar, bo‘lmasa ular tushkunlikka tushib qoladi.

<sup>22</sup> Ey qullar, bu dunyodagi xo‘jayinlaringizga har doim itoat qilinglar.

Xushomadgo‘ylik bilan xo‘ja ko‘rsinga emas, balki Rabbimizdan qo‘rqib, chin ko‘ngildan itoat qilinglar. <sup>23</sup> Har bir ishni insonlar uchun emas, Rabbimiz Iso Masih uchun qilayotganday chin qalbdan bajaringlar. <sup>24</sup> Chunki sizlar haqiqiy Xo‘jayiningiz Masihga xizmat qilyapsizlar. U O‘z xalqiga atab qo‘ygan qut–barakani sizlarga mukofot qilib berishini yoddan chiqarmang. <sup>25</sup> Kimki nohaqlik qilsa, qilmishiga yarasha jazo oladi. Zero, Xudo tarafkashlik qilmaydi.

## 4–BOB

<sup>1</sup> Ey xo‘jayinlar, sizning ham samoda Xo‘jayiningiz borligini bilib, qullaringizga odil va to‘g‘ri muomala qiling.

### Har xil nasihatlar

<sup>2</sup> Doim ibodat qiling. Ibodatda hushyor bo‘lib, shukronalar keltiring. <sup>3</sup> Shuningdek, bizlar uchun ham ibodat qilinglar: biz Xudoning kalomini e‘lon qilishimiz va Masih sirini\* bayon etishimiz uchun Uning O‘zi bizga yo‘l ochib bersin. Men ana shu sir tufayli qamoqdaman. <sup>4</sup> Bu sirni munosib ravishda izhor eta olishimni Xudodan so‘ranglar.

<sup>5</sup> Fursatni g‘animat bilib, imonlilar qatoriga qo‘shilmaganlarga nisbatan oqilona yo‘l tutinglar. <sup>6</sup> Ular bilan qanday gaplashishni sizlarga o‘rgatay: ular bilan gaplashganingizda so‘zingiz hamisha yoqimli va mazmunli bo‘lsin.

### So‘nggi salomlar va tilaklar

<sup>7</sup> Men haqimdagi barcha yangiliklarni Rabbimiz Isoning sodiq xizmatkori, hamkorim va suyuqli birodarim Tixikus sizlarga aytib beradi. <sup>8</sup> Sizlarga dalda berib, hol–ahvolimizni sizlarga bildirsin\* deb, men uni sizlarning oldingizga jo‘natyapman\*. <sup>9</sup> Tixikus bilan birga oldingizga sodiq va sevimli birodarimiz, hamshaharingiz O‘nisimus\* ham boradi. Ular bu yerda bo‘lib o‘tgan hamma narsani sizlarga aytib berishadi.

<sup>10</sup> Men bilan birga qamalgan\* Aristarxus\* va Barnaboning jiyani Mark\* ham sizlarga salom yo‘llayptilar. Mark haqida yo‘l–yo‘riq olgansizlar: agar oldingizga borsa, uni yaxshi qabul qilinglar. <sup>11</sup> Yoshua, ya‘ni Yustus ham sizlarga salom yo‘llaypti. Xudoning Shohligi yo‘lida mehnat qilayotgan bulardan boshqa yahudiy\* hamkorlarim yo‘q. Ular menga tasalli bo‘lib kelmoqdalar. <sup>12</sup> Iso Masihning quli, hamshaharingiz Epafras\* sizlarga salom yo‘llaypti. Xudoning irodasini to‘liq bajaradigan, imoni komil insonlar bo‘linglar deb, Epafras zo‘r g‘ayrat bilan, tinmay sizlar uchun ibodat qilmoqda. <sup>13</sup> U sizlar uchun hamda Laodikiya va Heyrapolis shaharlaridagi\* imonlilar uchun ne–ne zahmatlar chekkaniga o‘zim shohidman. <sup>14</sup> Sevimli tabib Luqo\* va Dimas sizlarga salom yo‘llashyapti. <sup>15</sup> Laodikiya shahridagi birodarlarga, ayniqsa, Nimfaga va uning\* uyida yig‘iladigan jamoatga salom aytinglar.

<sup>16</sup> Sizlarga yozgan bu maktubimni o‘qiganingizdan keyin, uni Laodikiyadagi jamoat ham o‘qisin. Sizlar esa Laodikiya jamoatiga yozgan maktubimni\* o‘qinglar.

<sup>17</sup> Arxippusga: “Rabbimiz Iso zimmangga yuklagan xizmatni oxiriga yetkazgin”, —

deb aytib qo'yinglar.

<sup>18</sup> Men, Pavlus, mana shu maktubning yakunini o'z qo'lim bilan yozyapman\*. Qamoqda ekanligimni esdan chiqarmanglar. Xudoning inoyati sizlarga yor bo'lsin\*.

## IZOHLAR

*...qamoqda bo'lgan paytda...* — 4:10 oyatga va 1:7 izohiga qarang.

**1:1** *Timo'tiy* — ilk jamoatning yetakchisi bo'lib, havoriy Pavlusning hamkori (Havoriylar 16:1-3, Filippiliklar 2:20-22 ga qarang).

**1:3** *Otamiz Xudo* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih*.

**1:7** *Epafras* — Kolosadagi jamoatning asoschisi, bu paytda Pavlus bilan birga bo'lgan (4:12-13 ga va Filimo'n 23-oyatga qarang). Pavlus Rimda mahbus bo'lgani ehtimoldan holi emas (Havoriylar 28:16, 30 ga qarang).

**1:11-12** *nur* — Xudoning O'g'li bo'lgan Iso Masihning Shohligi ramzi (shu bobning 13-oyatiga qarang).

**1:14** *O'z O'g'li orqali...* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *O'z O'g'lining to'kilgan qoni orqali*.

**1:15** *U butun borliqning to'ng'ichidir* — Iso Masihning butun borliq ustidan hukmdor ekanini ko'rsatish uchun majoziy ma'noda ishlatilgan ibora (Ibroniylar 1:2 ga qarang). Yana Zabur 88:28 ga qarang.

**2:1** *Laodikiya shahri* — Kolosa shahridan qariyb 17 kilometr g'arbda joylashgan.

**2:2** *Xudoning siri — Masih* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Otamiz Xudoning va Masihning siri*. 1:25-27 ga qarang.

**2:8** *dunyoning xurofij kuchlari* — shu bobning 20-23-oyatlariga va Galatyaliklar 4:3, 8-10 ga qarang.

**2:11** *jismoniy sunnat* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:1-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko'rsatadi.

**2:13** *sunnatsiz* — majoziy ma'noda ishlatilgan bo'lib, Kolosaliklarning Iso Masihga imon keltirmaslaridan oldingi ruhiy holatini ko'rsatadi.

**2:15** *O'zining g'olibona yurishi* — bu o'rinda ishlatilgan yunoncha so'z urushdan g'alaba bilan qaytgan Rim lashkarining tantanali yurishiga nisbatan ham ishlatilgan. Rim lashkarboshisi urushdan qaytib kelganda, Rim shahrining ko'chalari bo'ylab lashkari bilan tantanali yurish qilar edi. Asir olingan dushmanlar esa hammaning ko'zi oldida ularning ortidan yurardi. Pavlus bu o'rinda mana shu ibora bilan Iso Masihning shayton va uning shohligi ustidan bo'lgan g'alabasini tasvirlaydi.

**3:1** *...Xudoning o'ng tomonida o'tiribdi* — Zabur 109:1 ga qarang. O'ng tomon muruvvat va baraka o'rni deb hisoblangan.

**3:10** *...sizning yangi tabiatigiz uni yaratgan Xudoning suratiga o'xshab bormoqda* — Ibtido 1:26-27, 1 Korinfliklar 15:45-49, 2 Korinfliklar 5:17, Galatyaliklar 3:27 ga qarang.

**3:11** *yunon* — ya'ni g'ayriyahudiy. O'sha davrda *yunon* so'zi millati yunon bo'lgan odamga nisbatan ham, yunon tilida gapirib, yunon urf-odatlariga rioya qiladigan

odamga nisbatan ham ishlatilgan.

**3:11** *johil* — yunoncha matnda *varvar*. O'sha davrda yunon tilini bilmagan va yunon urf-odatlariga rioya qilmagan odamlar johil va madaniyatsiz hisoblanardilar. Ularni odamlar "varvarlar" deb atashardi.

**3:11** *madaniyatsiz* — yunoncha matnda *Skif*. Skiflar qadimiy xalq bo'lib, o'zlarining vahshiyliги bilan tanilgan edilar. Boshqalar ularni madaniyatsiz deb ularga past nazar bilan qarardilar. Madaniyatsiz odamlar skiflar degan nom bilan yuritilardi.

**3:13** *Egamiz* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Masih*.

**3:15** *...sizlar bir tananing a'zosisizlar* — 1:18, 2:19 ga va 1 Korinfliklar 12:12-27 ga qarang.

**4:3** *Masih siri* — 1:25-27, 2:2-3 ga qarang.

**4:8** *...hol-ahvolimizni sizlarga bildirsin...* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *sizning hol-ahvolingizdan xabar olib kelsin*. Shu bobning 7, 9-oyatlarida Tixikus ularga Pavlus haqida xabar olib boradi deb yozilgani uchun ushbu tarjimada birinchi variantni tanlangan.

**4:8** *...men uni sizlarning oldingizga jo'natyapman* — Pavlus bu maktubini ularga Tixikus orqali berib yuborgan edi.

**4:9** *O'nisimus* — egasidan qochib ketgan bu qul Pavlusning xizmati orqali imonga kelgan edi. O'nisimusning egasi Kolosada yashaydigan, Filimo'n ismli imonli bir kishi edi. O'nisimus endi Pavlusning Filimo'nga yozgan maktubini olib, Rimdan Kolosaga, egasining oldiga qaytib ketayotgan edi (Filimo'n 8-18-oyatlarga qarang). Shu bobning 9-17-oyatlarida aytib o'tilgan ko'p odamlarning ismlari Pavlusning Filimo'nga yozgan maktubida ham tilga olingan.

**4:10** *qamalgan* — 1:7 izohiga qarang.

**4:10** *Aristarxus* — Salonika shahridan edi (Havoriylar 19:29, 20:4, 27:2 ga qarang).

**4:10** *Mark* — Mark bayon etgan muqaddas Xushxabarning muallifi. Mark Quddus shahridan edi (Havoriylar 12:12, 25, 13:5, 15:37-39, 2 Timo'tiy 4:11 ga qarang).

**4:11** *yahudiy* — yunoncha matnda *sunnat qilingan*, Iso Masihga ishongan yahudiylar nazarda tutilgan.

**4:12** *Epafras* — 1:7 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

**4:13** *Laodikiya va Heyrapolis shaharlari* — Laodikiya Kolosa shahridan qariyb 17 kilometr g'arbda, Heyrapolis esa 20 kilometr shimoli-g'arbda joylashgan edi.

**4:14** *Luqo* — Yangi Ahddagi to'rtta Xushxabardan birining va Havoriylar faoliyati kitobining muallifi. U Pavlusning ko'p safarlarida hamroh bo'lgan (Havoriylar 16:10 izohiga qarang).

**4:15** *uning* — yunoncha matndagi olmosh ayol kishiga nisbatan ishlatilgan. Ba'zi yunon qo'lyozmalaridagi olmosh esa erkak kishiga nisbatan ishlatilgan.

**4:16** *Laodikiya jamoatiga yozgan maktubim* — Laodikiya jamoatiga yozilgan maktub haqida faqatgina shu oyatda aytib o'tilgan. Bu maktub saqlanib qolmagan yoki Pavlus Efesliklarga yozgan maktubini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Efesliklarga yozilgan



maktub o'sha hududdagi jamoatlarda navbatma-navbat o'qilgan bo'lsa kerak.

**4:18** ...*shu maktubning yakunini o'z qo'lim bilan yozyapman* — 1 Korinfliklar 16:21  
izohiga qarang.

**4:18** Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'z oyatga qo'shimcha qilingan: *omin*.